FARG‘ONA VILOYATI FARG‘ONA SHAHAR HOKIMINING

QARORI

2024-yil 26-noyabr | 399-11-169-Q/24 | Farg‘ona shahar hokimligi

Farg‘ona shahridagi avtomobil yo‘llarida 3.27 “To‘xtash taqiqlangan” va 3.2 “Harakatlanish taqiqlangan” yo‘l belgilarini o‘rnatishga haqida

O‘zbekiston Respublikasi “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-aprel kunidagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-son qarori ijrosini ta’minlash hamda Farg‘ona shahrida avtotransport vositalarining harakatini tartibga solish va aholi murojaatlarini hal etish maqsadida Farg‘ona shahar Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasining 2024-yil 07-sentyabr kunidagi 33/1092-son xati, Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limining 2024-yil 7-sentyabr kunidagi 33/1063-son murojaat xati va 2024-yil 19-sentyabr kunidagi 33/1023-son xatini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Farg‘ona shahar Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasining 2024-yil 07-sentyabr kunidagi 33/1092-son xati, Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limining 2024-yil 7-sentyabr kunidagi 33/1063-son murojaat xati va 2024-yil 19-sentyabr kunidagi 33/1023-son xulosa xati inobatga olinsin.

2. Farg‘ona shahrida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash, transport vositalari harakatini tartibga solish, shuningdek, aholi murojaatlarini hal etish maqsadida:

Farg‘ona shahar Yangi zamon ko‘chasiga (haftaning chorshanba va shanba kunlari soat 06^{00} dan 16^{00} gacha) 3.27 “To‘xtash taqiqlangan”;

Farg‘ona shahar Ma’murjon Uzaqov ko‘chasiga “Harakatlanish taqiqlangan”;

Farg‘ona shahar Alisher Navoiy ko‘chasi 55-uyda joylashgan Farg‘ona shahridagi Koreya xalqaro universiteti binosining old qismiga *(*o‘z hududida avturargoh tashkil etish sharti bilan*)* 3.27 “To‘xtash taqiqlangan” va 7.2.2 “Ta’sir oralig‘i” yo‘l belgilari belgilangan tartibda o‘rnatilsin.

3. Farg‘ona shahar Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi (R.Dehqonov):

Farg‘ona viloyati Ichki ishlar boshqarmasi Jamoat xavfsizligi xizmati yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi bilan hamkorlikda Farg‘ona shahar ko‘chalarida yo‘l belgisi o‘rnatishlishini tashkil etsin hamda mazkur hududlarda avtomobillar harakati cheklanishini nazorat qilib borsin.

4. Farg‘ona shahar hokimligi Axborot xizmati ushbu qarorni ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda yoritish choralarini ko‘rsin.

5. Mazkur qaror ijrosini ta’minlash Farg‘ona shahar hokimining o‘rinbosari J.Baxtiyorov hamda Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i A.Mirzaevlar zimmasiga yuklansin.

Farg‘ona shahar hokimi **V.Nazarov**